



KATTA MA'LUMOTLARNI(BIG DATA) HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: XORIY VA MILLIY TAJRIBA QIYOSIY TAHLILI

Ergasheva Malika Rasulovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

g-mail: malikaergasheva0914@gmail.com

Tel: 901750914

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7375083>

ARTICLE INFO

Received: 19th November 2022

Accepted: 27th November 2022

Online: 29th November 2022

KEY WORDS

Axborot, katta hajmdagi ma'lumot, Big Data, qonunchilik, tartibga solish, milliy tajriba, xorijiy tajriba, tahlil.

Hozirda Big Data texnologiyalari hayotning turli sohasiga tobora chuqurroq kirib bormoqda, savdo, reklama, dam olish va hatto, shaxsiy hayot tuzilishi haqidagi odatiy g'oyalarni o'zgartirmoqda. Mamlakatimizda elektron hukumat doirasida turli axborot tizimlarining joriy etilishi natijasida ma'lumotlar bazasida katta hajmdagi ma'lumotlarning yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Raqamli huquqlar sohasida Big Data o'rni, uning huquqiy maqomi ifodasi bugungi rivojlanayotgan jamiyatning dolzarb mavzusi bo'lib qolmoqda. Chunki istalgan biror axborotni qidirayotgan foydalanuvchi borki, bu jarayonda bevosita ma'lumot oqimiga "dush keladi". Big Data haqida haligacha aniq bir tavsif mavjud emasligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan. Shunga qaramay, biz quyida bir necha izohlarni ko'rib chiqamiz:

Big Data* (katta ma'lumotlar) - juda katta hajmdagi bir jinsli bo'lmagan va tez tushadigan raqamli ma'lumotlar bo'lib,

ABSTRACT

Mazkur maqolada katta hajmdagi ma'lumotlar(Big Data)haqidagi ilmiy-nazariy tavsiflar tahlil qilinadi. Uni huquqiy tartibga solishning milliy va xorijiy qonunchilikdagi asosi qiyosiy-tahliliy tavsiflanadi. Raqamli huquq sohasida Big Dataning o'rni ilmiy va huquqiy jihatdan o'rganiladi.

ularni odatiy usullar bilan qayta ishlab bo'lmaydi. Ba'zi hollarda katta ma'lumotlar tushunchasi bilan birga shu ma'lumotlarni qayta ishlash ham tushuniladi. Asosan, analiz obyekti katta ma'lumotlar deb ataladi.

Big Data atamasi 2008-yildapaydo bo'lgan. Nature jurnali muharriri Klifford Linch dunyo ma'lumotlar hajmining juda tez sur'atda o'sishiga bag'ishlangan maxsus sonida Big Data atamasini qo'llagan. Biroq katta ma'lumotlar avval ham bo'lgan. Mutaxassislarining fikricha, kuniga 100 GBdan ko'p ma'lumot tushadigan oqimlarga Big Data deb aytilar ekan. Katta ma'lumotlarni analiz qilish, inson his etish imkoniyatidan tashqarid abo'lgan qonuniylatlarni aniqlashda yordam beradi. Bu esa kundalik hayotimizdagi barcha sohalarda, hukumatni boshqarish, tibbiyot, telekommunikatsiya, moliya,transport, ishlab chiqarish va boshqa sohalarni yanada yaxshilash, ularningimkoniyatlarini oshirish, muommolarga muqobil yechimlar



izlab topish imkonini yaratadi. Zamonaviy axborot tizimlarida foydalaniladigan axborot (ayniqsa, video, audiomultimediali ma'lumotlar) hajmini jadal o'sishi oldimizga ushbu axborotni ma'lumotlar bazasida saqlash va ularni boshqarishning yangi murakka bmasalalarni qo'yadi. Quyida 1 katta hajmdagi multimedia ma'lumotlarni tashkil qilishga, shuningdek ular bilan ishlash vositalari tahlil qilib chiqamiz:

*<https://www.coursehero.com/file/126500074/1-mavzudocx/>

Katta hajmli multimedia ma'lumotlar to'rtta asosiy xarakteristikaga ega bo'ladi: hajm, xilma-xillik, tezlik, narx.

1. Hajm. Insonlar va mashinalar tomonidan hosil qilinayotgan ma'lumotlarning o'sib borayotgan soni, axborot texnologiyalari infrastrukturalariga ma'lumotlarni saqlash, ishlov berish va taqdim etishida yangi talablarni qo'yadi.
2. Xilma-xillik. Turli strukturalarda taqdim etilgan ma'lumotlar xilma-xil bo'ladi. Bular kredit kartalar bo'yicha operatsiyalar bo'ladimi, ilmiy tadqiqot natijalari bo'ladimi, fotografik suratlar bo'ladimi, video va audio ma'lumotlar bo'ladimi barchasi o'ziga xos ishlov va saqlash shart sharoitlarini talab etadi.
3. Tezlik. Tezlik deganda nafaqat ma'lumotlarning ma'lumotlar bazasiga kelib tushish tezligi, balki bu ma'lumotlar bazasidan olinadigan ma'lumotlarni chiqarib olish tezligi ham anglanadi.
4. Narx. Katta hajmdagi ma'lumotlar – qimmat resurs hisoblanadi. Ma'lumot dolzarbligi, foydaliligi va ichidagi kontentiga qarab uning qanchalik qimmat baholigi aniqlanadi.

Katta hajmli ma'lumot* - ([inglizcha](#): *Big data*) — katta hajmdagi

ma'lumotlarga nisbatan qo'llanadigan termin hisoblanadi (odatda terabayt, ekzabayt va petabayt darajasida). Ushbu ma'lumotlarni amaldagi va yangi yaratilayotgan texnologiyalar yordamida to'plash, taqsimlash, o'zgartirishlar kiritish, tahlil qilish, saqlash va vizual shaklda tasvirlash imkoni bo'lishi kerak. Ma'lumotlar miqdorining tez o'sishiga so'nggi yillarda kuzatilayotgan texnologik taraqqiyot va buning natijasi hisoblanmish mashina tomonidan yaratilayotgan ma'lumotlarning ko'payib borishi sababchidir. RFID-texnologiyasining keng tarqalishi, elektron transaksiyalarning moliya sohasida keng qo'llanilishi, ilmiy-tadqiqot muassasalarining to'plagan natijalari, web-texnologiyalarining keng tarqalishi, telekommunikasion tizimlardagi protokollar shular jumlasidandir. Big Data vaslida ilmiy-tadqiqotga aloqador sohalarda avvaldan ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, lekin so'nggi yillardagina ushbu fenomen ko'proq tilga olinadigan bo'ldi. Buning sababi shundaki, katta miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish endi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ham keng qo'llanila boshlanishi va buning oqibatida ma'lumotlar tahlilining raqobatbardoshlikni oshirish vavsamaradorlikni kuchaytirish kabi muhim masalalarda asosiy o'rinni egallaganidir.

* <https://g.co/kgs/wXE5Jc>

Big Data odatiy Bosh informatsion mutaxassis (Chief Information Officer - CIO) uchun qo'shimcha vazifalar va talablar yaratishdan tashqari, yangi ma'lumot boshqaruvchisi (Data Steward) va Ma'lumot bo'yicha mutaxassis (Data Scientist) kabi kasblarning paydo bo'lishiga olib keldi.



O'zbekistonda Big Datani huquqiy taribga solish qonun hujjatlari asosida mustahkamlab qo'yilgan. Big Data bilan bog'liq qarorlar va umumiy qonunchilik quyidagi hujjatlarda o'z aksini topgan. Quyida ulardan ba'zilarini tahlilini ko'rib chiqamiz:

[“2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”](#) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida keltirilishicha*, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi tizimlarni ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini qisqa va uzoq muddatli bashoratlash tizimini BIG DATA usullari, shuningdek, qisqa va uzoq muddatli bashoratlarni amalga oshirishda neyron tarmoqlar va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanilgan monitoring qilish tizimini yaratish ko'zda tutilgan.

[“Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”](#) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq*: Toshkent shahar jamoat transporti sohasiga oid barcha ma'lumotlarni bir butun axborot resurslari sifatida Big Data texnologiyasi asosida shakllantirish va Machine Learning (sun'iy intellekt) algoritmlarini qo'llash orqali ulardagi jarayonlar kechishini prognoz qiluvchi va maqbullashtiruvchi axborot tizimini yaratish rejalashtirilgan.

[“Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida”](#) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan*, “Big data” texnologiyasini joriy etish orqali ma'lumotlar bazalarini tizimlashtirish va tahlil qilish, mahalliy eksportyorlar, sanoat korxonalarini,

investorlar, shu jumladan xorijiy tashkilotlarehtiyojlari uchun davlat tashkilotlarining ma'lumotlar bazalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish va “Big data” texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy qilish orqali idoralararo “Tahlil” axborot-tahlil platformasini ishga tushirish ko'zda tutilgan.

*<https://lex.uz/>

“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasi* doirasiga esa IT-park asosida ilg'or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun “aqli yechimlar” ni ishlab chiqishni rag'batlantirish kiritilgan. Shuningdek, strategiyada “Big Data” texnologiyasiva undan foydalanish bo'yicha xodimlar malakasini oshirish hamda server va kommunikatsiya qurilmalarini xarid qilish, “Big Data” texnologiyasini sinovdan o'tkazish va ishga tushirish ham belgilangan.

[Elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining o'z faoliyati bo'yicha jamoatchilik oldida elektron hisobot berishi tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida](#) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq: “Ma'lumotlarni boshqarish” axborot* tizimiga davlat organlarivva tashkilotlarining axborot tizimlari va axborot resurslarini integratsiya qilish orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish, kelgusida prognozlashtirish imkonini beruvchi, “Big Data” arxitekturasi va “Business Intelligence” texnologiyalarini qo'llash asosida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqarish axborot tizimi sifatida qaraladi. Qolaversa, davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ma'lumotlarni boshqarish (jamlash) va



qayta ishlash) tizimlari hamda ular orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish borasida "Big Data" arxitekturasi va "Business Intelligence" texnologiyalari asosida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqarish bo'yicha mahalliy va ilg'or xorijiy tajribani o'rganish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi huquqiy hujjatlardan Big Dataning mamlakatimiz taraqqiyotidagi muhimlik darajasini bilib olishimiz mumkin. Endi AQSHda bu yo'nalish bo'yicha ma'lumotlarga to'xtalamiz:

Bugungi kunda** Qo'shma Shtatlarda iste'molchi ma'lumotlarini to'plash bilan bog'liq maxfiylik muammolarini hal qiladigan yagona qonun yo'q. Qonunchilar federal darajada ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni joriy qilishdi, ammo Kongress iste'molchilarni himoya qilish uchun keng qamrovli qonun yaratish uchun halivharakat qilmadi.

Aksincha, 2016-yilda Yevropa Ittifoqi "Katta ma'lumotlar" bilan bog'liq xavflarni

*<https://lex.uz/>

**<https://globaldatahub.taylorwessing.com/article/regulation-of-big-data-in-the-united-states>

bartaraf etish va iste'molchilarga ularning ma'lumotlari ustidan nazoratni berish uchun umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi nizomni qabul qildi. AQSHda katta ma'lumotlarni boshqaradigan yagona davlat, federal yoki xalqaro qonunlar mavjud emas. Biroq, maxfiylikni tartibga solish uchun e'lon qilingan HIPAA, FERPA, FCRA, 1FTCA kabi bir qator federal qonunlar mavjud. Bundan tashqari, shtat qonunlari mavjud - masalan, Kaliforniyaning Onlayn Maxfiylikni himoya qilish to'g'risidagi qonuni - bu veb-saytlardan aniq va qisqacha maxfiylik to'g'risidagi bayonotlarni taqdim etishni

talab qiladi va foydalanuvchilarga ularning ma'lumotlaridan qanday foydalanishni bilish huquqini beradi. Shuningdek, xalqaro qonunlar - masalan, GDPR - ma'lumotlar maxfiylikni qoidalarini yaratish uchun Yevropa Ittifoqiga va Yevropa iqtisodiy hududiga kiruvchi mamlakatlarga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuningdek, Big Data hozirda axborot texnologiyalari rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Rossiya biznesi uchun nisbatan yangi bo'lgan bu yo'nalish G'arb mamlakatlarida keng tarqaldi. Buning sababi, axborot texnologiyalari davrida, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar gullab-yashnaganidan so'ng, har bir internet foydalanuvchisi uchun katta hajmdagi ma'lumotlar to'plana boshladi va bu oxir-oqibat Big Data yo'nalishini keltirib chiqardi.

"Katta ma'lumotlar, qonun va katta ma'lumotlarni tartibga solish" haqida o'z mulohazalarini bildirgan Shefali Manickam Kone ma'lumotlariga ko'ra, katta ma'lumotlar mavzusi 2012-yilda Shveysariyaning Davos shahrida bo'lib o'tgan Jahon iqtisodiy forumida muhim mavzu bo'ldi. 2012-yilgi yig'ilishda WEF "Katta ma'lumotlar, katta ta'sir" nomli hisobotni e'lon qildi, unda ma'lumotlar valyuta yoki oltin kabi iqtisodiy aktivlarning yangi klassi sifatida e'lon qilindi, hatto u "dunyoning nefti deb ham ta'riflangan raqamli davr" bo'ldi.

Katta ma'lumotlarning ahamiyati shundan kelib chiqadiki, har qanday vaziyat yoki narsa haqida qanchalik ko'p ma'lumot mavjud bo'lsa, odamlar, korporatsiyalar va boshqa tashkilotlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qimmatli tushunchalarni shunchalik ishonchli tahlil qilish va olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Katta ma'lumotlarning keng



tarqalgan ta'siri hali yuridik sohaga/kasbga sezilarli darajada kirib bormagan. 2019-yilda ma'lumotlar tahlili kompaniyasi xabar berishicha, aksariyat yuridik firmalar (namunaning qariyb 90foizi) Big Data va uning qaror qabul qilishdagi roli muhim emas deb hisoblashgan.

*<https://www.lawyered.in/legal-disrupt/articles/big-data-law-regulating-big-data-sanjay-mehta/>

Xulosa qilib aytganda, "Katta hajmdagi ma'lumotlar" axborot texnologiyalari va

ma'lumotlarni boshqarishda tez rivojlanayotgan konsepsiya bo'lib, kompaniyalar o'z bizneslarini yuritish uslubini inqilob qilmoqda. Big Data xorijiy kompaniyalarda faol joriy etilmoqda. Nasdaq, Facebook, Google, IBM, VISA, Master Card, Bank of America, HSBC, AT&T kabi kompaniyalar, [Coca Cola](#), Starbucks va Netflix allaqachon Big Data resurslaridan foydalanmoqda.

References:

1. <https://lex.uz/>
2. https://covid19.uthm.edu.my/wp-content/uploads/2020/04/Big-Data-For-Beginners-by-Reynolds-Vince.-z-lib.org_epub_.pdf
3. <https://g.co/kgs/wXE5Jc>
4. <https://danykom.ru/uz/bolshie-dannye-kak-instrument-globalnye-tehnologii-dlya-hraneniya-informacii-big/>
5. <http://bunnybat.ru/uz/windows-7/sistemy-bolshih-dannyh-big-data-chto-takoe-big-data-sobrali-vs-samoe-vazhnoe.html>
6. https://tadviser.com/index.php/Article:Big_Data_in_Russia
7. <https://compling.navoiyuni.uz/index.php/conferences/article/download/90/83>
8. <https://www.lawyered.in/legal-disrupt/articles/big-data-law-regulating-big-data-sanjay-mehta/>
9. <https://globaldatahub.taylorwessing.com/article/regulation-of-big-data-in-the-united-states>
10. <http://openconference.us/index.php/conf/article/download/379/343>